

## GAMES USED IN THE CORRECTION OF VARIOUS SPEECH

## DEFECTS

Shermatova Dilrabokhan Zohidjan qizi

Kokand City 5 special

school boarder

**Annotation:** this article provides information about the types of games used in stuttering and correction of various speech defects, as well as the order of their application.

**Keywords:** stuttering, correction, compensation, elimination, complex, action games, didactic games

Defektologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar orqali nuqsonni erta aniqlash va uni oldinroq tuzatish katta ahamiyatga ega ekanligi isbotlab berilgan. Duduqlanuvchi bolalarda duduqlanishni o'yin asosida bartaraf etish samarali kechadi. Chunki oyin bolalarning etakchi faoliyati bo'lib o'zining qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bolalikning daslabki kunlaridan taqlid qilish orqali yuzaga kelib, maktabga davrgacha u bola uchun atrof muhitni aktiv ijodiy aks ettirish shakli bo'lib qoladi. Oyin insonning boshqa faoliyatlari kabi, ijtimoiy xarakterga ega. Kompleks xarakterlar bilan amalga oshirilib nutqni ham o'z ichiga oladi.

Duduqlanishni yuqotishda qo'llaniladigan oyin metodikasi bolalardagi mohirlikni, faollikni, mustaqil muloqot usullarini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu metodika bolalarga birdek yondoshishga, metodik va tarbiyaviy ishlarni birgalikda olib borishga maxsus mashg'ulotlardan tashqari paytlarda bolalarda tashabbuskorlikni benuqson nutqni mustahkamlashiga sharoit yaratadi. Turli oyinlar tizimida bolalar oyin va oyindan tashqari, ammo odamlarning hayotiy munosabatlarini aks ettirgan hollarda o'zini tutish qoidalarini o'zlashtiradilar.

<https://confrencea.org>

Natijada o'zlashtirilgan munosabat shakllari duduqlanuvchi bolalarning axloqi va nutqini qayta qurishga va nuqsonni yuqotishga zamin yaratadi.

Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarni duduqlanishini bartaraf etishda foydalaniladigan oyin turlari mavjud. Bularga:

- didaktik oyinlar;
- harakatli oyinlar;
- dramatzatsiyalashtirilgan oyinlar;
- sukut saqlash rejimiga qaratilgan oyinlar;
- shivirlab gaplashishga qaratilgan oyinlar;
- ashula aytish bilan olib boriladigan oyinlar kiradi.

Bolalarda duduqlanishni bartaraf etishda yuqorida ko'rsatilgan barcha oyinlardan foydalanish mumkin.

Bola shaxsining rivojlanishida oyinning ahamiyati

Oyinning muhim xususiyati shundaki, bolalar egallab olishlari qiyin bo'lgan bilim va ko'nikmalarni oyin orqali osongina o'zlashtirib oladilar.

Bola faoliyati jarayonida o'ziga zavq uyg'otadigan yorqin, ohangdor narsalar bilan oynashga intiladi. Bola sezgi organlari orqali idrok etgan tevarak-atrofdagi narsa va tabiat hodisalari uning xotirasida tasavvur tarzida saqlanib qoladi. Oyinga rahbarlik qilish degani oyinni shunchaki chetdan kuzatib turish va unga chetdan turib ishtirok etish degani emas, albatta. Logoped oyin xususiyatlarini hisobga olgan holda o'ziga xos yo'llar bilan rahbarlik qilish kerak.

Logoped oyinga rahbarlik qilib, oyin mazmunini boyitadi, bolaning ijodiy qobiliyatini o'stiradi, yaxshi axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi. SHunday qilib, oyin bolalarni har tomonlama rivojlantirish vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

<https://conferencea.org>

Har xil guruh yoshidagi bolalar bilan o'tkazilgan oyinlar turli-tuman bo'lib, ularning bir-biridan farqi katta. 5-6 yoshli duduqlanuvchi bolalar bilan o'tkaziladigan harakatli oyinlarning ko'pi syujetli oyinlar bo'lib, unda bolalar muayyan bir qoidaga (masalan: quyon inidan ma'lum signaldan so'nggina chopib chiqishi mumkinligiga) rioya qilgan holda ayiq, quyonning yurishi singari harakatlarni bajardilar. Logoped bolalar bilan ko'pincha birgalikda oynab, ularni oyin qoidasini bajarishga odatlantiradilar. SHu bilan bir qatorda syujetsiz oyinlar ham o'tkaziladi, bunda chopish, sakrash, muvozanat saqlashni mashq, qiladilar. Ular har bir harakatni endi ilgarigiga qaraganda qoidaga rioya qilgan holda bajaradilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, harakatli oyin duduqlanuvchi bolalarning harakat qilishiga bo'lgan zaruriy ehtiyojini qondiruvchi eng sevimli va qiziqarli faoliyatdir. Duduqlanuvchi bolalar bino ichida ham, ochiq havoda ham sayrga chiqqanlari mumkin. Bunda kerak bo'ladigan maxsus jihozlar: muvozanat saqlash mashqlarini bajarish uchun skameykalar, tirmashib chiqish uchun ilgakli narvonchalar shular jumlasidandir. Harakatli oyinlarni o'tkazishda guruh xonasi yoki zaldan foydalanish mumkin. Buning uchun guruh xonasida ko'proq joy qoldirish: bolalarning erkinroq harakat qila olishga imkon yaratish maqsadida stollarni xonadon tashqariga olib chiqish, qolgan mebellarni iloji boricha chetroqda surib qoyish lozim. Tez ta'sirlanadigan, haddan tashqari harakatchan bolalar alohida e'tiborni talab qiladi: ular bilan kam harakatlanuvchan organlarni harakatga keltiradigan harakatli oyinlarni tez-tez oynab turish zarur.

Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarni duduqlanishini bartaraf etishda foydalaniladigan oyin turlari mavjud. Bularga:

- didaktik oyinlar;
- harakatli oyinlar;
- dramatzatsiyalashtirilgan oyinlar;
- sukut saqlash rejimiga qaratilgan oyinlar;

<https://conferencea.org>

- shivirlab gaplashishga qaratilgan oyinlar;

- ashula aytish bilan olib boriladigan oyinlar kiradi.

Bolalarda duduqlanishni bartaraf etishda yuqorida ko'rsatilgan barcha oyinlardan foydalanish mumkin.

**Didaktik oyinlar.** Bunda ko'ruv, nafas, ovoz, eshitish, tovushlar tallaffuzini rivojlantirishga qaratilgan didaktik oyinlar o'tiladi. 6-7 yoshli duduqlanuvchi bolalar uchun didaktik oyinlardan «ovozidan bilib ol», «shaharlarga sayohat», «xat» oyinlarini misol qilish mumkin. Stol ustida oynaladigan oyinlar masalan: «loto, domino, mozayka, shashka, piramida» oyinlari esa duduqlanuvchi bolalarning ko'ruv va eshituv idrokini, diqqatini, mayda motorikasini xotirasini rivojlantirishda xizmat qiladi.

«Ovozidan bilib ol» oyini 6-7 yoshlar uchun. Bir bola orqasini o'tirib turadi, Boshqalari navbat bilan qo'llaridagi pretmetlarni polga tushuradilar. Logoped erga tushayottan narsalarni ko'rib turadi na shivirlab «bu tushgan narsa nima?» deb suraydi bola «Bu tushgan narsa qalam, bu esa lineyka » va hokozolarni aytadi.

«SHahar boylab sayohat».

Logoped bolalar soniga qarab rasmlar tanlab oladi. Odamlar rasmi; ishchi, o'quvchi, sportsmen, ona va bola, savat ko'targan kampir.

Transport; tramvay, avtobus, taksi va boshqalar.

Bino va bezaklar; fontan haykal, xiyobon.

Mashina markalari: Moskvich, Volga, CHayka, Jiguli.

Gullar; lola, siren, atirgul, romashka. Rasmlar komplekta xonaning turli gomonlariga qoyiladi. Bolalar shaharga topshiriq bilan boradilar va aniqlaydilar.

SHaharda kimlar yashaydilar, qanday transportlarda yuradilar, shaharda qanday binolar va bezaklar, xushmanzara joylar bor, hiyobonda qanday gullar

o'sadi. Topshiriqqa asosan topilgan rasmlarii olib, bolalar logoped yoniga qaytadilar va birgalikda ko'rganlarini gapirib beradilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmedova, Z., M. Ayupova, and M. Xamidova. "Speech therapy game." (2013).
2. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon, and Rustamova Feruzabanu. "CONTRIBUTION OF CHARLES MIKHAIL EPE TO THE EDUCATION OF DEAF CHILDREN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 563-566.
3. Shahnigor, Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna Khomidova. "FORMATION OF KNOWLEDGE, SKILLS AND COMPETENCES IN THE PROCESS OF TRAINING CHILDREN WITH HEARING DEFECTS TO WORK." *Confrencea* 3.03 (2023): 188-192.
4. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon. "COCHLEAR IMPLANTATION: AN INNOVATION IN THE DEVELOPMENT OF TECHNOLOGY, MEDICINE, DEAF PEDAGOGY AND SPEECH THERAPY." *Open Access Repository* 4.2 (2023): 321-330.
5. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Нутқи тўлиқ ривожланмаган мактабгача ёшдаги болаларни ёзма нутққа тайёргарлигини шакллантириш муаммолари." *Confrencea* 4.04 (2023): 179-186.
6. Raximova, Xurshidaxon. "NATIONAL AND FOREIGN ADVANCED TRENDS IN HIGHER EDUCATION EFFICIENCY IMPROVEMENT." *JOURNAL OF NORTHEASTERN UNIVERSITY* (2022).
7. O'ghiloy, Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna Kurbanuva. "CHILDREN WITH LOCAL MOVEMENT DEFECTS." *Confrencea* 3.03 (2023): 226-230.
8. ABDULATIF, RAXIMOVA XURSHIDAXON SADIKOVNA ABDUHALIMOVA ZULXUMOR, RAVSHANOVA DURDONAXON DILMUROD QIZI QIZI, and RO'ZIYEVA UMIDAXON MUZAFFAR QIZI. "PRINCIPLES OF INCLUSIVE EDUCATION." *Confrencea* 5.05 (2023): 278-282.